

ILK SIVILIZATSIYA

Mutallibjonov Boburmirzo

University of business

And science talabasi.

Annotatsiya: Bu maqolada jahondagi dastlabki sivilizatsiya asoschilari shumerlar va ularga tegishli bo'lgan, hozirgi kungacha javobi topilmagan ayrim sir-sinoatla haqida ma'lumot berilgan, va maqolada shumerlar to'g'risida bir qator olimlar tomonidan ilgari surilgan fikr va nazariyalari haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.
Tayach so'z va tushunchalar: Sivilizatsiya, Mesopotamiya, Shumer, "Sangngiga", Yulius Oppert, Delmun, dravid, Aratti, Bobil, Genri Roulinson, Bibliya, mixxat.

Аннотация: В данной статье представлена информация о шумерах, основателях первой цивилизации в мире, некоторых связанных с ними загадках, на которые до сих пор нет ответа, а также в статье содержится информация о мнениях и теориях, выдвинутых рядом ученых о шумерах дано.

Ключний слова: Цивилизация, Месопотамия, Шумер, «Сангнгига», Юлий Опперт, Дельмун, дравиды, Аратти, Вавилон, Генри Роулинсон, Библия, Клинопись.

Abstract: This article provides information about the Sumerians, the founders of the first civilization in the world, and some mysteries related to them that have not been answered until now, and the article also contains information about the opinions and theories put forward by a number of scientists about the Sumerians. given

Keywords: Civilization, Mesopotamia, Sumer, "Sangngiga," Julius Oppert, Delmun, Dravidian, Aratti, Babylon, Henry Rawlinson, Bible, Cuneiform.

Olimlarning har xil yondashuvlari fanda ko'plab nazariyalar vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Tarixning sirli jumboqlaridan biri qadimgi shumerlarning vatani qayer, hamda ular yaratgan yozuvning tarixi qachonga borib taqaladi, hozirgi kunga qadar tarixchi olimlar o'rtasida turli munozaralarga sabab bo'lmoqda. Shumerlar eng qadimiy xalqlar bo'lib, ular o'zlarining yuqori darajadagi rivojlangan madaniyatlari hamda ilk boshqaruvini yaratgan dunyodagi dastlabki xalqlardan bo'lgan. Shumerlarning kelib chiqishi fanga noma'lum bo'lib qolgan. Bizgacha yetib kelgan tasvirlar shuni ko'rsatadiki, ularning tashqi ko'rinishi yaqin Sharqdagi va dunyodagi

boshqa qabilalardan keskin farq qiladi. Ular mil. avv. IV mingyillikning II yarmida Mesopotamiyaning janubida paydo boʻlib, asta sekin Ikki daryo oraligʻini egallaganlar. Baʼzi olimlar shumer afsonalariga asoslanib ularning sivilizatsiyasi bundan VII -VIII ming yillar ilgari paydo boʻlgan deb hisoblaydilar. Lekin arxeologik tadqiqotlar natijasida bu nazariya isbotlanmagan. Shumerlar oʻzini oʻsangngiga oʻ oʻqora boshlar¹ deb atashgan. Bu xalqni shumerlar deb atashni ilk bor XIX asrda nemis-yahudiy olim Yulius Oppert tomonidan Akkad va Shumer shohi deb oʻqilgan qadimiy yozuv asosida taklif qilingan. Shumerlarning kelib chiqishi hozirgi kunga qadar nomaʼlum va baxsli mavzulardan biri boʻlib qolmoqda. Antropologik tadqiqotlar koʻra sanʼat buyumlarini oʻrganish orqali olingan maʼlumotlarga mos kelmaganligi uchun ularning etnik tipi ham nomaʼlumligicha boʻlib qolmoqda.

Koʻp yillar davomida olimlar shumer mixxat yozuvini oʻqiy olmadi. Natijada, ular shumer sivilizatsiyasini qayerdan chiqqanligini va shumerlar oʻzining afsonalarida nimani nazarda tutganligi toʻgʻrisida aniq xulosalar chiqara olmalar. XX asrning I yarmida shumer yozuvlarini topish va ularni oʻqib chiqish boʻyicha F. Tyur-Danjen, A.Pebel, A.Daymel, A.Falkenshteyn va boshqa olimlarni xizmatlari tahsinga sazovordir. Tadqiqotlariga qaraganda, shumerlarni kelib chiqishi oriylardan oldingi hind-eron xalqlariga yaqin boʻlib, Hindiston yarimorolining janubiy qismidan kelgan boʻlishi mumkin degan taxmini ilgari surganlar. Enmarker va Aratti xoqon deb nomlangan qadimiy eposni tadqiq qilgan olimlar shunday xulosaga kelgan. Ayrim arxeologik va antropologik tadqiqotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Enmarker va Lugalbanda haqidagi epik dostonni tadqiq etgan. Boshqa bir guruh olimlar shumerlarning Kaspiy dengizi boʻylarida joylashgan Aratti shahar-davlati bilan yaxshi munosabatda boʻlganligini taʼkidlab, shu yer ularning asl vatani boʻlishi mumkin deb hisoblashadi. Yuris Zarinsning maʼlumotlariga koʻra, shumerlar Sharqiy Arabiston qirgʻoqlarida, bugungi Fors koʻrfazi mintaqasidan boʻlgan hamda ular bu yerda muzlik davri oxirida bu hududlarni suv bosmasdan oldin yashaganlar.

Shumerlarning asl vatanini Armaniston degan fikrni ilgari surganlar ham mavjud. Grigor Beglaryan Armaniston hududidagi baʼzi bir toponim nomlaridan (Zimara, Zimarra va b.) kelib chiqib shunday xulosaga kelgan. Bundan tashqari Begloryan mashhur arxeolog Genrix Shlimanning Butun Yevropa madaniyati oʻzini Qadimgi

¹ <https://science.wikia.org/ru/wiki/Шымеп>

Yunoniston va Rim sivilizatsiyasining merosxoʻri deb biladi, ularning ikkalasi ham qadimgi arman sivilizatsiyasidan kelib chiqadi degan fikrni asos qilib oladi. Janubiy Ural psixofiziologi V.P. Putenixin shumerlarning Mesopotamiyaga Uraldan koʻchib oʻtganligi toʻgʻrisidagi fikrni ilgari surdi. Kaspiy dengizidan tashqarida Mesopotamiyaga boradigan yoʻlda katta va kichik daryolarini uchratamiz. Ulardagi mavjud Samara daryosi Mesopotamiyada miloddan avvalgi V mingyillikdan beri maʼlum boʻlgan. Albert Olmstedning yozishicha, Bobilga kelib oʻrnashgan shumerlarning ot va aravani boshqarishga ustaligi, jismoniy xususiyatlari va aglyutinativ turon tili ularning Markaziy Osiyodan kelib chiqqanligiga ishora qiladi.

Mashhur shumer shunos olim Arno Pyobel shumer tilining grammatik xususiyatlarini tadqiq etib, shumer va muqaddas Bibliyadagi sheam atamalarini bitta deb hisoblaydi hamda shundan kelib chiqqan holda xulosa qilib shumerlarning eng yaqin ajdodi yahudiylar degan taxmini ilgari suradi. 1853-yilda mashhur shumer shunos olim Genri Roulinson mixxat tilini aniqlash jarayonida uni skifcha yoki turkiycha shumerlarni esa Bobil skiflari deb ataydi. Shimoliy Suriya Sharqiy Oʻrta dengiz miqiyosida ilk sivilizatsiya markazlaridan boʻlgan. Soʻnggi yillarda arxeologik qazishmalar natijalari (XX asr 80-yillari boshida) shundan dalolat berib turibdi. Suriyaning shimoliy-gʻarbiy qismida miloddan avvalgi III ming yillikda mahalliy sivilizatsiya paydo boʻlganligi va unga Shumer sivilizatsiyasi madaniy taʼsir koʻrsatganligi aniqlandi. Ushbu sivilizatsiya ulkan qazish ishlari natijasida (Tell-Mardix shahar xarobalarida) qadimgi Emba shahridan topildi (hozirgi Halab shahridan 50 km narida). Arxeologlar Tell - Mardixning quyi, eng qadim qatlamlarini ochishga muvaffaq boʻlganlar. Ushbu qatlamlardan Tel Mardix tarixining ikki bosqichi aniqlandi: Eblaning Yahmad davlatining qaramligidagi davri (miloddan avvalgi 1900-1600 yillar) va Ebla tarixining mustaqillik davri (milollan avvalgi XXVI-XXIII asr)². Ushbu madaniyatning eng katta yutuqi boʻlmish Ebla matnlari aynan shumer yozuvida yaratilgan. Eblait alifbosining vujudga kelishiga ham shumer yozuvi katta taʼsir koʻrsatgan. Matnning 90 % shumer alifbo belgilarida bitilgan. Eblait-shumer alifbo belgilari tashqi koʻrinishidan janubiy shumer anʼanaviy yozuvlariga oʻxshab ketadi (Lagash, Ur, Uruk yodgorliklaridan). Ammo olimlarning fikricha, bu tizim shimoliy (yaʼni Kish) hududlarida vujudga kelgan (miloddan avvalgi 2500-yil). Tell Mardixda ham shumer-eblait qomuslari topilgan.

² Abdullayev U.A. Jahon tarix. Toshkent, 2017. –B. 161.

Sivilizatsiyalarning o'sish va nazorati, shu davrlard qo'lg'a himoya, talafotlar va sifatlar asl Sabablari Maks Veber, Emil Darkham, Osvald Spangler, Pitirim Soro Keen, Arnold Toynbi, Alfred Veber, A.L.Kroeber, Filipp Bugbi, Kerol K. Uigli, Rashton Kolborn, Kristofer Devson, S. N. Eyzenshteyn, Fernand Brau Del, Uilyam X, Mikenel, Adda Bozeman, Immanuel Vollershteyn va Felip Fernandes-Armesto kabi tarixchilar, ijtimoiy va antropolar Tomonidan urganilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki shumerlar janubiy Mesopotamiya hududida yashovchi aholi bo'lib sivilizatsiya asoschisi hisoblanadi. Shumerlar haqida ma'lumotlar bo'lsa-da ular yetarli darajada emas. Ular haqidagi tortishuv va turli xil nazariyalarning vujudga kelishi bugungi kunga qadar davom etmoqda. Bilamizki aynan mesopatamiya bu mintaqaga katta ahamiyatga ega desak maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki bu yerda qishloq hojaligi, birinchi shaharlar tashkil etilganini bilamiz. Aynan tarixchilar aytishicha mesopatamiya sivilizatsiyasi mil.avv.V ming yillikda paydo bo'lgan desa boshqa bir mualliflar mill.avv.II yarim ming yil bo'lgan deb ta'kidlashadi. Biz manbalarda oqiganimizki ushbu xudud 2 xil mintaqaga bo'lish mumkin, O'ssuriyaliklar yashagan yuqori Mesopotamiya shumerlar bilan xetlar yashagan quyi Mesopotamiyaga bo'linganligi bizga ma'lum. Mesopatamiya sivilizatsiyalarning kelib chiqishi joyi bo'lishidan tashqari ko'plab texnik va siyosiy yangiliklar paydo bo'lgan ular ichida ko'zga ko'ringan larni aytadigan bo'lsak bular G'ildirak sug'orish tizimi qonunlar va yozuvni birinchi to'plamlarini asosiy yangiliklari desak maqsadga muvofiq.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. □Toshkent, 2016.
2. Ergashev Sh. Qadimgi sivilizatsiyalar. – Toshkent, 2016.
3. Abdullayev U.A. Jahon tarix. –Toshkent, 2017.
4. ru.m.wikipedia.org
5. science.wikia.org